



ODIL YOQUBOVNING “ULUG’ BEK XAZINASI” ROMANIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TASAVVUR

Mahmudova Mashhura
Ilg’orjon qizi

O'zbek tili va adabiyot ifakulteti O'zbek tili va adabiyot yo'nalishining 4-bosqich talabasi, Nizomiy nomidagi TDPU

Annotatsiya

“Ulug’bek xazinasi-o’zbek yozuvchisi qalamiga mansub, tarixiy asar. 1970-1973 yillarda yozilgan. Bu asar 60 ga yaqin tillarga tarjima qilingan. Asar Odil Yoqubovning eng sara asarlaridan biri. Bu asari orqali Odil Yoqubov Hamza nomidagi O’ZBEKISTON SSR Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. Bu asar ikki qismdan iborat bo’lib, birinchi qismida Ulug’bekning hayoti va o’limi tasvirlangan bo’lsa ikkinchi qismida esa uning me’rosini himoya qilishgishga bag’ishlangan.

Kalit so‘zlar:

Odil Yoqubov, Abdulaziz, Abdulatif, Gavharshohbegim, Mirzo Ulug’bek, asarga berilgan ta’riflar, ma’naviy va ma’rifiy qarashlar.

Bu asar orqali biz tarixiy shaxslar haqida bilib olamiz. Mening naznim bo’yicha bu asarda toj -u, taxt yoki shoxlik, nasl nasab, kitoblar haqida emas, aksincha oiladagi mojarolar yoritilgan. Nimadan boshlanib, nimadan tugashigacha yoritilgan. Eslashim bo’yicha bu asarni o’n besh yoshimda o’qigandim, o’shanda kitoblar ichida eng ta’sirlanganim va taajublangan asarim edi. O’sha yosh qizni yig’lata olgandi. Hozir esa bu asarni oxirigacha o’qishga jasoratim yetmaydi. Chunki so’ngida nima bo’lishi menga ayon.

Aslida nega ODIL YOQUBOV bu asarni nega yozdi, hech o’ylab ko’rganmisiz Meni fikrim bo’yicha qandaydir toju-taxtni davomchilarini anglatmadi -u ichki nizolarni yoritdi. Inson kim bo’lib tug’ilishi emas, qanday yashashi muhim. Xalqimizda bir gap bor insonning oxiri go’zal bo’lsin. Ha biz Abdulatifni eslashimiz bilan unga g’azabimiz, nafratimiz oshadi. Yo’q men istisno qilaman. Chunki Abdulatifdek insonlar o’ramizda bor hattoki o’sha odamlar ham Abdulatifni qoralashadi. O’shalar ham uzoqdan jirkanchli ko’rinadi ammo siz ham o’zingizni uzoqdan ko’rganingizda siz ham boshqalarga Abdulatifdan battaroq ko’rinarmidingiz. Abdulatif otasini bir kunda o’ldirdi ba’zi insonlar borki otasini har kun o’ldiradi. O’sha otalar esa qaniydi tezroq jonimni olsaydi shu bolam deb nido qilishadi. Men shunday insonlar suhbatida ham bo’ldim. Ular bolasining zulmlaridan, qiynalganidan, emas ular bolamga ko’p gunoh yozilyapti shunga meni jonim uzulsa-yu bolam tezroq tavba qilsa deydi insonlar bor. Qarang hattoki ota shunda ham bolasi o’ylayapti. Aytingchi biz qachon otamizni esga oldik.

Ulug'bek ham o'limdan qorqqandan yoki taxtidan maxrum bo'lganidan emas o'g'lining "Padarkush" degan nom ostida qolib ketishidan qo'rqqan edi. Ulug'bek o'g'lining Kelajak avlodga yomon otlig' bolishib ko'rinmasligini istardi.

Shu o' rinda Muhammad Yusufning Ulug' bekka atab yozgan she'ri aytib o'tsam

Bag' rimda bo'y yetgan bo'z bolam
 Mergan bolam, lochin ko'z bolam,
 O'z bo'g' zimga tig' urgan, o'z bolam,
 Men dardimni, kimga aytaman
 Tanim muzlab, tosh qotaman
 Men shox emas, axir otaman.
 Go'rimda ham o'ylab yotaman
 Men dardimni kimga aytaman
 Ulug' bek dardini hech kimga aytolmasidi. Aytadilarku

"o' zimdan chiqqan baloga, qayga boray davoga". Birov sizni hafa qilsa, otanangizga aytasiz, ishingiz yurishmasa do'stingizga aytasiz bir chora izlaysiz, amma farzandingiz sizga qarshi jang qilsa, buni kimga ham ayta olardingiz. Aytingiz ham deylilik lekin chora topolmaysiz. Nima qilsangiz ham bolamda deydilar. Otalar shuda vos kechganda ham bir kechirim so' rasa farzandlari yana bag' riga bosadi vaholandi farzand nafs uchun otasiga mulozamat qilsa bundan yomoni yo' q. Shunday insonlar bor boshqalarga nasihatlar beradi, sahnalarga chiqib yodnomlar aytadi ammo lekin, biroq o'z otasini qariyalar uyiga tashlab qo'yganlar bor. Bunday insonlar o'zi aytgan so'zlariga o'zlari amal qilmaydiganlar deyiladi. Hozirgi jamiyatga bundaylar ko'p uchraydi. Do'stlariga qulluq qilishadi, sal o'zlaridan balandda bo'lgan kishilarga lug'atlaridagi eng chiroyli so'zlardan ishlatishadi. Ammo ming afsus otang bilan qachon bir dasturxonda choy ichib suhbatlashding deb so'rasangiz javob berolmaydigan insonlar bor. Men shunday insonlarni ham ko'rdim otasini ochestvasini olib yurib, otasining tug'ilgan yili-yu, kunini bilmaydiganlar bor. Bu juda ayanchli. Bundaylarni nima deb atashimiz mumkin. Abdulatifga hop "padarkush" degan tamg'a qo'ydik, bularga qanday nom berish mumkin.

Samarqandda Ulug' bekning qabri marmartoshlar bilan bezalgandi ammo Abdulatifning qabri qarovsiz va yovvoyi tikanaklarga to'la edi. Otasi tirik bola turib, o'ldiga chiqarganlarning qabri qanday bo'lar ekana.

Abdulatifga to'xtalsak u qondoshlaridan toj-u taxtni qizg'andi, o'z ukasiga qarshi kurashdi. Hattoki taxt uchun hech kimni ayamadi. Otam mendan ko'ra ukamni qo'llaydi, mendan ko'ra uni ko'proq yaxshi ko'radi deb o'yladi. Axir otalar hamma bolalarini yaxshi ko'rmaydimi Ulug' bek hamma bolalarini yaxshi ko'rardi axir u marifat va manaviyatga boy inson edi. Kitoblar bilan mashg'ul bo'lgan inson buni yaxshi biladi. Ulug'bek ham buyuk marifat egasi edi. Ba'zi insonlarga qancha mehr e'tibor bersangiz ham o'z bilganidan qolmaydi. Hozir ham atrofimizda bor bundan yomonlari bor. Ular ukasini otasiga yomon ko'rsatishga urinadi, ukasichi akasidan nafratlanib ulg'ayadi. Shu tariqa mol talash uy talash, taxt talashlar boshlanadi. Hop unda nima qilish kerak Ulug'bek marifat egasi bolsa, unda farzand nega bu holga keldi, sabab shuki meni fikrim bo'yicha Ulug' bek kitoblarni o'zi o'qidi, o'g'illariga oqitmad. Kitoblar esa kutubxonalarda qolib ketdi. Shuning uchun biz ilm ulashishimiz

kerak. Ko'p ilm egasi bo'lsangizu uni biriga yetkazib berolmasangiz ilmingizdan nima naf.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [„О присуждении государственных премий Узбекской ССР имени Хамзы в области литературы, искусства и архитектуры“](#) (ruscha). *Pravda Vostoka* (8-noyabr 1977-yil), s. 3.
2. Yoqubov, O. *Ulug'bek xazinasi*. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
3. 2. Kitobman.uz — Ulug'bek xazinasi haqida tavsif va sharh. <https://kitobman.uz> (<https://kitobman.uz/books/ulugbek-xazinasi-978-9943-5524-2-5>)
4. 3. Sarmoya-books.uz — Ulug'bek xazinasi asari tavsifi va qisqacha mazmuni. <https://sarmoya-books.uz> (<https://sarmoya-books.uz/product/ulugbek-xazinasi-odil-yoqubov/>)
5. 4. Talimuchun.uz — Ulug'bek xazinasi insho va ma'ruza rejasi bo'yicha ma'lumot. <https://talimuchun.uz> (<https://talimuchun.uz/insholar/ulugbek-xazinasi-insho/>)
6. 5. Uniwork.buxdu.uz — Ulug'bek xazinasi va tarixiy kontekst tahlili. <https://uniwork.buxdu.uz> (https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13149_2_622F80823B88B76675315979E84B9CB645064AC0.pdf)